

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA MILLIY TADQIQOTLAR:

DAVRIY ANJUMAN

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



MENDELEEV DMITRIY IVANOVICH
(1834-1907)

2022
FEVRAL
№37



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.tadqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
25-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-25**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-25**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 37-қўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 28 февраль 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 11 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ГЕОГРАФИЯ

1. Abdurahmonova Hilola Lutfillaxanovna ANDIJON AGLOMERASIYASINING SHAKLLANISH SHARTLARI VA RIVOJLANISHI	7
2. Teshaboyeva Shoiraxon Rustambekovna GEOGRAFIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING BILIMINI VA FAOLLIGINI OSHIRISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH	9



ГЕОГРАФИЯ

ANDIJON AGLOMERASIYASINING SHAKLLANISH SHARTLARI VA RIVOJLANISHI

Abdurahmonova Hilola Lutfillaxanovna

Oliy toifali geografiya fani o'qituvchisi,

ADU 1-kurs magistranti Andijon viloyati

Jalaquduq tumani 18-maktab

Tel: +998934437758

e-pochta manzili: abdurahmonova78@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Andijon aglomeratsiyasining shakllanishi shartlari va rivojlanishi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: aglomeratsiya, urbanizatsiya, suburbanizatsiya, konurbatsiya, metropolis, mosentrik, polisentrik, Yangi Andijon.

O'zbekiston shaharlari orasida Andijon shahri o'zining demografik sig'imi, iqtisodiy salohiyati, zamonaviy qiyofasi bilan ajralib turadi. Zamonaviy Andijon ko'p funksiyali, iqtisodiy, siyosiy, fan va madaniyat markazi vazifasini bajaradi.

Qadimiy Andijon shahri azaldan demografik, madaniy va ma'muriy salohiyati, qulay transport-geografik o'rni, savdo va hunarmandchilik markazi sanalgan. Uning yoshi 2500 yildan ortiq. Ayniqsa, Temuriylar davrida shahar Farg'ona vodiysining iqtisodiy va siyosiy poytaxti funksiyasini bajargan. Andijon farzandi Zahiriddin Muhammad Bobur mazkur shaharga "Movarounnahrda Samarqand va Kesh qo'rg'onidan so'ngra mundin ulug'roq qo'rg'on yo'qtur", deya ta'rif bergan.

Zamonaviy urbanizatsiyaning eng muhim ko'rsatkichlaridan biri shaharlarning hududiy tuzilmalari (aglomeratsiyalar) bosh shahar Andijon negizida shakllanmoqda. Aglomeratsiya, aholi punktlari aglomeratsiyasi – aholi punktlari, asosan shaharlar, shuningdek qishloqlarning intensiv xo'jalik, mehnat va madaniy-maishiy hamda rekreatsion aloqalar bilan bog'lanib, yagona birlikni tashkil qilgan kompakt hududli guruhi. Aholining guruh bo'lib joylashishining eng rivojlangan shakllaridan biri. Shaharlarda (asosan yirik shaharlar atrofida) aholining to'planishi asosida vujudga kelgan va rivojlangan. Aglomeratsiya uchun aholi yashaydigan hududlarning yaqinligi, aholining mehnat qilish uchun shahar atrofidan shahar markaziga borishi xos.

Aglomeratsiya – aholi punktlarning bir-birlariga qo'shib ketib, ulkan shahar, yagona iqtisodiy hudud hosil qilishi. Aglomeratsiyalarda aholi zich o'rnatilgan, xilma-xil ishlab chiqarish tarmoqlari, xususan sanoat korxonalari, ilmiy va o'quv muassasalari to'plangan bo'ladi. Aglomeratsiya so'zi fransuz adabiyotlarida uchraydi, inglizlar buni konurbatsiya, amerikaliklar metropolislar, deb atashadi. Shahar aglomeratsiyasi ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va joylanishi tufayli turli funksional tip va yiriklikdagi shaharlarning vujudga kelishi va ularning bir joyda to'planishidan, xususan shaharlarning qulay iqtisodiy geografik o'rin tufayli eniga va bo'yiga kengayib borishidan hamda yirik shahar atrofida va unga yaqin joyda shahar va shaharchalarning tarkib topib qo'shib ketishidan paydo bo'ladi.

Shahar aglomeratsiyasi quyidagi shart va sharoitlarga tayangan holda shakllanadi:

- shahar atrofida bitta yoki ikkita yirik shahar bo'lishi lozim;
- uning atrofida kamida ikkita shahar va shaharchalar bo'lishi shart;
- markaziy shahar (aglomeratsiya yadrosi) va yo'ldosh shaharchalar orasidagi masofa eng ko'pi ikki soatlik vaqt doirasida bo'lishi zarur;
- aglomeratsiya shahar va shaharchalari o'rtasida mayatniksimon (tebranma) migratsiya aloqasi rivojlangan bo'lishi shart;
- atrofidagi shaharlar aholisi eng kamida aglomeratsiya aholisining 10 foizini tashkil etishi zarur va x.k.



Aglomeratsiyaning birinchi tipi yagona markazga asoslangan monosentrik xususiyatga ega bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tipi polisentrik, ya'ni mavqei jihatdan teng bo'lgan ko'p markazlardan iborat bo'lgan. Bulardan monosentrik aglomeratsiyalar tipi keng tarqaldi. Farg'ona-Marg'ilon, Angren-Olmaliq aglomeratsiyalari polisentrik, Toshkent, Samarqand, Andijon, Namangan, Qarshi, Nukus, Urganch va boshqa aglomeratsiyalar monosentrik hisoblanadi. Aglomeratsiya chegaralari odatda, markaz shahar bilan uning atrofidagi shaharlar o'rtasidagi mehnat, madaniy-maishiy aloqalar samaradorligi bilan belgilanadi. Bu aloqalar chegarasi hozirgi zamonaviy transport rivojlangan bir vaqtda 50-60 km oraliqdagi radiusni tashkil etadi. Ko'pgina hollarda bu shahar aglomeratsiya chegarasi ma'muriy chegaralar bilan mos kelmaydi. Shahar atrofidagi aholi punktlarining shahar markazidan va uning atrofidan kelayotgan aholi hisobiga tezroq rivojlanishi shahar aglomeratsiyasining o'z chegarasidan tashqariga chiqishiga olib kelmoqda. Bu jarayon fanda suburbanizasiya-deb ataladi (suburbanizasiya lotinchadan subur-shahar atrofi). Shahar markazidagi ekologik vaziyat, o'ziga xos murakkab turmush tarzi, narx-navoning balandligi, jinoyatchilikning o'sishi, soliqning yuqoriligi kabi noxush holatlardan charchagan, zerikkan odamlarning shahardan tashqariga ko'chib o'tishi va shahar markaziga ishga kelib-ketishi suburbanizasiya jarayoning rivojlanishida yetakchi omillar hisoblanadi. Eng avvalo bunda aholining moddiy jihatdan o'ziga to'q qatlamli shahar atrofiga kelib joylasha boshlaydi. Keyinchalik o'rta qatlam va o'z navbatida aholi bilan baravariga ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari ham kelib o'rnashadi, rivojlanadi. Ayrim mamlakatlar, regionlar, shaharlar Aholisining soniga tabiiy ko'payishdan tashqari migratsiya jarayoni ham ta'sir etadi- aglomeratsiya shahar va shaharchalari o'rtasida «aholi» aloqasi bo'ladi,

Aglomeratsiyalarning tashqi qiyofasi (konfiguratsiyasi) ham turlicha:

doirasimon, lentasimon, chuzinchoq, amfibiyaga o'xshash bo'ladi. Bu o'sha joyning yer usti tuzilishi, transport tizimi, gidrografiyasiga bog'liq. Odatda, yirik daryolar bo'yida shakllangan aglomeratsiyalar 50-70 va hatto 100 km-ga cho'zilib ketadi (Volgograd, Krivoy Rog, Bratsk aglomeratsiyalari). O'zbekiston (va O'rta Osiyo) aglomeratsiyalari o'ziga hos mintaqaviy xususiyatlarga ega. Ular asosan, tog' oldi hududlarda sug'orma dehqonchilik joylarida, elektr transporti sust rivojlangan, atrofi qishloq xo'jalik ekinlari bilan o'ralgan sharoitda vujudga kelgan. Har qaysi aglomeratsiyaning tarixiy geografik o'rni, asosi bo'ladi. Masalan, Andijon aglomeratsiyasida Asaka va Shahrixon shaharlari yo'ldosh shaharlar hisoblanib, bu shaharlar Shaxrixonsoy bo'yida sug'orma dehqonchilik asosida vujudga kelgan. Mohiyatan: bizning aglomeratsiyalar shahar emas, balki shahar-qishloq aglomeratsiyalaridir. Andijon shahrida hozirgi kunda aholi yashash joylarida 55641 ta xo'jalik, Qishloq xo'jalik ilmiy tekshiruv muassasiga tegishli 38 ta jami 55679 ta xo'jaliklar bor. Jami yer maydonlari 2787 gektarni tashkil etmoqda. Aglomeratsiyaning aholisi yo'ldosh shaharlar Asaka va Shahrixon aholisini qo'shmaganda 703517 kishini tashkil etmoqda. Aholi zichligi 1 km.kvga 5750 kishi to'g'ri kelmoqda. So'nggi yillarda aholini uy-joy bilan ta'minlash maqsadida shaharda yangi ko'p qavatli turarjoylar barpo qilinmoqda. Shahar markazidagi eski uylar buzilib, aholi Andijon tumanidagi Istiqlol massivida joylashgan Yangi Andijon massiviga ko'chirilmoqda. Uning maydoni 4 ming gektarni tashkil etib, 411 ming nafar aholi uchun mo'ljallanib barpo etilmoqda. Andijon shahrini Yangi Andijon shahri bilan tezkor transport orqali bog'lash uchun mamlakat prezidenti metro qurish taklifini bergan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Andijon aglomeratsiyasi yildan-yilga har tomonga kengayib, rivojlanib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Soliyev.A.S, Tashtayeva S.K, Egamberdiyev.M.M. Shaharlar geografiyasi. -T.: "Barkamol fayz media"-2018, 182 b
2. З.М.Бобур. Бобурнома. -Т.: «Юлдузча»-1989, 368 б
3. Andijon viloyat kadastr bo'limi ma'lumotlari.
4. Internet ma'lumotlari.



GEOGRAFIYA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING BILIMINI VA FAOLLIGINI OSHIRISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

Teshaboyeva Shoiraxon Rustambekovna

Oliy toifali geografiya fani o‘qituvchisi

Andijon viloyati Jalaquduq tumani 11-maktab

Tel: +998914957497

e-pochta manzili: shoirateshaboyeva@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola zamonaviy interfaol metodlar orqali o‘quvchilar qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirish va dars jarayonidagi muammolarni bartaraf etish texnologiyalari berilgan bo‘lib, nafaqat geografiya fani o‘qituvchilari, balki barcha fan o‘qituvchilari uchun ham mo‘ljallangan, shuningdek, yosh va ijodkor o‘qituvchilar uchun ijodiy g‘oya sifatida tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: Tushunchalar tahlili, Geografik kokteyl, Lift, VARK, visual, audio, reading, kinestetik.

Hozirgi kunda ta‘lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. Zamonaviy metodlarni qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta‘lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. An‘anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta‘lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta‘lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasining ko‘tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning dars jarayonida faolligini doimo rag‘batlantirib turilishi, dars jarayonida turli interfaol metodlardan foydalanish zarurdir. Amerikalik psixolog olimlar R.Karnikau va F.Makelrouning o‘rganishlariga ko‘ra shaxsning tabiiy fiziologik-psixologik imkoniyatlari muayyan shakllarda o‘zlashtirilgan bilimlarni turli darajada saqlab qolish imkonini beradi. Ya‘ni shaxs: manbani o‘zi o‘qiganida 10%; ma‘lumotni eshitganida 20%; sodir bo‘lgan voqea, hodisa yoki jarayonni ko‘rganida 30%; sodir bo‘lgan voqea, hodisa yoki jarayonni ko‘rib, ular to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni eshitganida 50%; ma‘lumot(axborot)larni o‘zi uzatganida (so‘zlaganida, bilimlarini namoyish etganida) 80%; O‘zlashtirilgan bilim(ma‘lumot, axborot)larni o‘z faoliyatiga tatbiq etganida 90% hajmdagi ma‘lumotlarni yodda saqlash imkoniyatiga ega.

Quyida ularning ayrimlariga ta‘rif berib o‘tamiz.

“Tushunchalar tahlili” metodi.

Ushbu metodni o‘quv mashg‘ulotlarining barcha turlarida(dars boshlanishi yoki oxirida, biror bo‘lim tugaganda) o‘tilgan mavzuni o‘zlashtirishganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash shuningdek, yangi mavzuni boshlashdan oldin o‘quvchilarning bilimini tekshirib olish uchun mo‘ljallangan. Ushbu metodni mashg‘ulot jarayonida yoki mashg‘ulotning bir qismida yakka kichi hamda jamoa shaklida ham tashkil etish mumkin.

Tushunchalar	Mazmuni
Gidrosfera	
Atmosfera	
Materik	
Dunyo okean	
Geografik qobiq	


“Geografik kokteyl” metodi.

Bu metod geografiya fanidan 5-9-sinflarda barcha mavzular uchun qo‘llash mumkin. Ushbu metodda guruhlar bir-biriga fanga oid qiziqarli va mantiqiy savollar berishadi. Savollar geografiya fanining turli yo‘nalishlari bo‘yicha tuzilgan bo‘lishi mumkin. Masalan: tabiiy geografiya, iqtisodiy-ijtimoiy geografiyadan. To‘g‘ri javob bergan o‘quvchiga o‘qituvchi tomonidan sharbat beriladi. Bu sharbatni 3 biror mevdadan tayyorlash mumkin. Bu esa o‘quvchilarni mavzuga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshiradi.



“Lift” metodi.

Bu metodda yangi mavzu bo'yicha guruhlariga tezkor savollar beriladi. Bunda barcha guruh a'zolari qatnashadi. Guruh a'zolaridan biri savolga to'g'ri javob bersa, "LIFT" bir pog'ona ko'tariladi. Agar noto'g'ri javob bersa "LIFT" joyidan siljmaydi. Qaysi guruh "LIFT"dan tez yuqoriga ko'tarilib olsa, g'olib bo'ladi.



“VARK” metodi

Ushbu metod maktab o'quvchilar uchun eng samarali usuldir. Bu usul o'qituvchilarning dars o'tishini yengillashtirishga, o'quvchilar bilan oson ishlashga, ortiqcha yuklamalarni kamaytirishga yordam beradi.

Visual- o'quvchilar ko'rish orqali mavzuni yaxshiroq o'rganadilar. Bu uslubda video, film ko'rishni yoqtiradigan o'quvchilar ma'lumotlarni ko'proq eslab qoladilar. Inson miyasi visual ma'lumotni matnga qaraganda ancha tezroq ishlaydi.

Audio- o'quvchilar eshitish orqali yaxshiroq o'rganadilar. Audiokitoblarni sevib tinglaydigan o'quvchilarga mos keladi.

Reading-writing- o'qish va yozish orqali yaxshiroq o'rganadilar. Ba'zi o'quvchilar o'qish va yozish orqali olgan bilimlarini esda saqlab qolishga harakat qiladi va bu usul ularga mos keladi. Darsda mavzuga oid kerakli ma'lumotlarni yozdirib qo'yish juda yaxshi samara beradi.

Kinestetik ta'lim- bu usul harakatchan o'quvchilarga mos keladi. Sinfda mavzuni har-xil harakatli o'yinlar, sahna ko'rinishlari, musobaqalar uyushtirish orqali tushuntirilganda xotirada mustahkam saqlanadi.

Yuqorida aytib o'tilgan usullardan foydalanib darslar tashkil qilinsa, darsning samaradorligi yanada ortadi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'quvchilarni dars davomida qanchalik ko'p faollashtirsak, interfaol usullardan foydalansak, ularning fanga bo'lgan qiziqishlarini, ta'lim olishga bo'lgan ishtiyoqlarini shunchalik oshiramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "O'rta Osiyo tabiiy geografiyasini"ni interfaol metodlardan foydalanib o'qitish imkoniyatlari. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti. Toshkent 2017. 224 b.
2. <https://www.facebook.com/groups/636785960132179/?ref=share>
3. W W W. Ziyonet
4. <https://-obuchenija--r.karnikau-f.makerlou-23html>

ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 25-ҚИСМ

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 28.02.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000
